# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma’lumotlar



## 2018-2023- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), *birlikda*




### Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **20 278** tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **771** taga yoki **3,7 %** ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **19,1** birlikni tashkil qildi.

### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

2023- yilning yanvar - martida **1 085** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **12,8** % ga oshgan.

### 2023- yilning yanvar - mart holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi

**13,2 %** — Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 2 683

**39,2 %** — Savdo — 7 940

**6,4 %** — Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 1 304

**17,2 %** — Sanoat — 3 481

**13,2 %** — Qurilish — 2 683

**3, %** — Tashish va saqlash — 758

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*




2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **20 278** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 085** tani tashkil etdi

2023- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Navoiy shahrida **4 326** tani yoki jamiga nisbatan **21,3 %** ni tashkil etdi.

## 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Navoiy viloyatida 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda***




2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbatan **19,1** birlikni tashkil etib, bu ko’rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,2** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich G‘ozg‘on shahrida **36,5** birlik, Tomdi tumanida **33,3** birlik, Navoiy shahrida **27,5** birlik, Konimex tumanida **22,6** birlik, Karmana tumanida **22,2** birlik, Uchquduq tumanida **21,8** birlik, Navbahor tumanida **18,6** birlikka yetdi.

**Hududlar kesimida 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda*)***




* *Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda***

**Eng yuqori ko‘rsatkich** — **G‘ozg‘on shahri – 36,5 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich** — **Tomdi tumani– 33,3 birlik.**

**Eng past ko‘rsatkich** — **Navoiy shahri – 27,5birlik.**

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1 000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich G‘ozg‘on shahrida **36,5** birlik, Tomdi tumanida **33,3** birlik, Navoiy shahrida **27,5** birlik, Konimex tumanida **22,6** birlik, Karmana tumanida **22,2** birlik, Uchquduq tumanida **21,8** birlik, Navbahor tumanida **18,6** birlik, Zarafshon shahrida **17,8** birlik, Qiziltepa tumanida **17,3** birlik kuzatildi.

**2023- yilning yanvar-martida har 1 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda***

**G‘ozg‘on shahri**
**36,5**

**Tomdi tumani**
**33,3**

**Navoiy shahri**
**27,5**

**Konimex tumani**
**22,6**

**Karmana tumani**
**22,2**

**Uchquduq tumani**
**21,8**

### Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, *birlikda*

**2022- y.** **2023- y.**




### 2023- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar - martida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Navoiy shahri - **15,7 %**, Qiziltepa tumani - **14,1 %**, Karmana tumani – **13,8 %**, Xatirchi tumani – **12,4 %**, Navbahor tumani – **9,9 %**, Zarafshon shahri – **8,2 %**, Uchquduq tumani – **8,7 %** hissalariga to‘g‘ri keldi.

### 2022-2023- yillarning yanvar - martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, *birlikda*

| Faoliyat turi | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|
| Savdo | 375 ta | 361 ta |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo’jaligi | 106 ta | 167 ta |
| Sanoat | 190 ta | 213 ta |
| Yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar | 61 ta | 84 ta |
| Qurilish | 65 ta | 49 ta |
| Axborot va aloqa | 14 ta | 26 ta |
| Tashish va saqlash | 29 ta | 45 ta |
| Boshqa xizmatlar | 119 ta | 123 ta |
| Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish | 4 ta | 17 ta |

### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yilning 1- aprel holatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **361** ta, sanoatda **190** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘167 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **170** ta, Qiziltepa tumanida **153** ta hamda Karmana tumanida **150** ta yangidan tashkil etilgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2019-2023- yillarning 1-aprel holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni,** ***birlik***




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning 1-aprel holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni,** ***birlik***




So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida 2019-2023 yillar davomida jami **5362** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida - **1919** (yoki **35,8 %**) ta, xizmatlar sohasida – **1235** ta (yoki **23,0 %**), sanoat sohasida – **1122** ta (yoki **21,0 %**), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - **735** ta (yoki **13,7 %**) va qurilish sohasida – **351** ta( yoki **6,5 %**) tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng koʻp yangidan tashkil etilayotgan sohalar

### Kichik korxona va mikrofirmalar soʻngi 3 yilda eng koʻp yangidan tashkil etilayotgan soha va yoʻnalishlar

| Tarmoq nomi | Korxonalar soni, birlik | Tarmoq-dan ulushi, %da |
|---|---|---|
| Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | | |
| Qorakoʻl zotlilardan tashqari qoʻylarni koʻpaytirish | 124 | 32,2 |
| Parrandachilik | 57 | 14,8 |
| Aralash qishloq xoʻjaligi | 108 | 28,1 |
| Qorakoʻl zotli qoʻylarni koʻpaytirish | 54 | 14,0 |
| Yirik shoxli qoramollarning boshqa zotlarini va buyvollarni ko'paytirish | 42 | 10,9 |
| Sanoat | | |
| Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish | 174 | 66,0 |
| Boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish | 27 | 10,2 |
| Boshqa mebellar ishlab chiqarish | 40 | 15,2 |
| Spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarish; butilkada mineral suvlar va boshqa suvlar ishlab chiqarish | 23 | 8,7 |
| Qurilish | | |
| Turar joy binolarini qurish | 61 | 55,0 |
| Yashash uchun moʻljallanmagan binolar qurish | 35 | 31,5 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 15 | 13,5 |
| Savdo | | |
| Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi | 84 | 16,2 |
| Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi | 59 | 11,3 |
| Ixtisoslashgan do'konlarda maishiy elektr tovarlari chakana savdosi | 24 | 4,6 |
| Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi | 195 | 37,5 |
| Ixtisoslashmagan ulgurji savdo | 158 | 30,4 |
| Xizmatlar sohasi | | |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar | 114 | 29,9 |
| Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari | 103 | 27,0 |
| Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo'yicha xizmatlar | 62 | 16,3 |
| Sartaroshxonalar va go'zallik salonlari xizmatlari | 34 | 8,9 |
| Avtomobil transportida yuk tashish | 68 | 17,8 |

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida tahlililar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi uch yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So‘ngi 3 yilda eng ko‘p savdo sohasining Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo‘nalishida **195 ta** yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo‘lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **37,5 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so‘ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar, ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari va avtomobil transportida yuk tashish ham ko‘plab kichik korxona va mikrofirmalar ochilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, sanoat sohasida so‘ngi yillarda asosan non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish , ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish, boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish va boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, qurilish sohasida esa ko‘proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish hamda boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida ko‘proq tashkil etilmoqda.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, *% da***



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

*Hajmi, mlrd.so‘mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, %da*



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, %da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

### 2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomoinidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. so'm*




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 699,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Navoiy shahrida (**405,5** mlrd.so'm), Karmana tumanida (**399,5** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**264,9** mlrd.so'm), Xatirchi tumani (**624,6** mlrd.so'm) va Zarafshon shahri (**134,6** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. G'ozg'on tumanida (**14,8** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, *%da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2018-2023- yilning yanvar-martida tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, *% da***




**2023 - yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, *% da***




2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,0 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Nurato,Tomdi Uchquduq tumanlari (**100 %**), Zarafshon shahri (**99,3 %**), Xatirchi tumani (**96,9 %**), G‘ozg‘on tumani (**90,2 %**), Qiziltepa tumani (**57,3 %**), Navbahor tumani (**43,6%**), Konimex tumani (**24,2 %**) va Karmana tumani (**21,1 %**) viloyatlari tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

**2023 - yilning yanvar - martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi**




**2018 -2023 - yillarning yanvar- martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, *% da***




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **973,3** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **82,5 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qiziltepa tumani (**209,7** mlrd. so‘m), Navoiy shahri (**186,3** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**167,27** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**106,3** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**96,1** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**79,1** mlrd. so‘m) hamda Nurota tumani (**76,7** mlrd.so‘m) ga qayd etildi.

2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ırilish ishlari hajmining o‘zgarish dinamikasi, *mlrd. so‘mda*



### 2018-2023 -yillarning yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, *mlrd. so'mda*




2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1 876,9** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **51,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **115,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Zarafshon shahri (**2 367,2** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 515,9** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**1 243,2**mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**875,8** mlrd. so'm), Tomdi tumani (**506,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**451,7** mlrd. so'm) hamda Navbahor tumani (**357,1** mlrd.so'm) ga qayd etildi.

### 2018 -2023- yanvar- martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, *% da*




### 2023 - yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



## 2018 - 2023 -yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xoʻjaligi hajmining oʼzgarish dinamikasi, *mlrd. soʻmda*




2023- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmi **2017,3** mlrd. soʻmni yoki jami qishloq xo’jaligi mahsuloti hajmining **96,5 %** ini tashkil etdi. Oʻsish sur’ati 2022-yilga nisbatan **102,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp ishlab chiqarilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**534,3** mlrd. soʻm), Qiziltepa tumani (**394,3** mlrd. soʻm), Navbahor tumani (**300,6** mlrd. soʻm), Karmana tumani (**242,2** mlrd. soʻm), Nurota tumani (**147,6** mlrd. soʻm) hamda Uchquduq tumani (139,4 mlrd.soʻm) da qayd etildi.

## 2018-2023- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xoʻjaligidagi ulushi dinamikasi, % da




## 2023- yil yanvar-mart holatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

**2018 -2023- yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarish dinamikasi, *mlrd. so‘mda***




2023- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1 908,5** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,5 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilga nisbatan **100,6 %** ni tashkil qildi.

**2023- yilning 1- aprel holatiga hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, *mlrd. so’m***




**2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, *% da***




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**411,7** mlrd. so‘m),Karmana tumanida (**325,9** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**279,4** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**266,6** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**203,9** mlrd. so‘m) va Navbahor tumani (**660,6** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2018 - 2023 - yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, *%da***




**2023 - yilning yanvar -martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatishi hajmi, *mlrd. so‘mda***




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 401,9** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **56,7** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,8** % ni tashkil qildi.

Hududl kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (297,2 mlrd. so‘m), Karmana tumani (244,0 mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (182,2 mlrd. so‘m), Qiziltapa tumani (169,4 mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (160,5 mlrd. so‘m), Navbahor tumani (110,1 mlrd. so‘m) va Nurota tumani (87,6 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

*Hajmi, mln. AQSH dol.*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

*Hajmi, mln.AQSH.dol.*




*Ulushi, %da*



**2018 – 2023- yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da**




2023- yilning 1-aprel holatida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **14,4** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **9,7 %** ni tashkil etdi.

**2023 - yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**




2023- yilning 1-aprel holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Konimex, Nurota, Tomdi va Xatirchi tumanlarida – **100 %**, Uchquduq tumanida – **99,4 %**, G'ozg'on shahrida **99,3 %**, Zarafshon shahrida— **98,8 %**, Karmana tumanida – **37,4 %**, Qiziltepa tumanida – **14,4 %**, Navbahor tumanida – **11,2 %** va eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – **1,7 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2018 – 2023- yillarning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, *%da***




2023- yilning 1- aprel holatida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **64,3** million AQSH dollarini yoki jami importning **44,6** % ini tashkil etdi.

**2023- yilning 1-aprel holatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, *% da***

2023- yilning 1- aprel holatida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G‘ozg‘on shahrida, Nurota, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida – **100,0 %**, Zarafshon shahrida – **99,3 %**, Konimex tumanida – **98,0 %**, Qiziltepa tumanida– **87,4 %**, Karmana tumanida – **50,5 %**, Navbahor tumanida – **44,5 %**, Navoiy shaxrida – **31,6 %** ni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 31,6 |
| Zarafshon sh. | 99,3 |
| G’ozg‘on sh. | 100,0 |
| Karmana t. | 50,5 |
| Konimex t. | 98,0 |
| Qiziltepa t. | 87,4 |
| Navbahor t. | 44,5 |
| Nurota t. | 100,0 |
| Tomdi t. | 100,0 |
| Uchquduq t. | 100,0 |
| Xatirchi t. | 100,0 |

# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **4,4 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **102,1** % ni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **32,7 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **102,6 %** ni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,6 %** ni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan o‘sish sur’ati **102,6 %** ni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **102,0%** ni tashkil qildi.

**2023- yilning I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda***




2023- yilning yanvar-martining I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **818** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **396** (**48,4 %**)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **395** (**48,3 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **27** (**3,3 %**)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,3 %** (**313 ta**), xizmatlar sohasida – **25,7 %** (**210 ta**), sanoatda – **16,5 %** (**135 ta**), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida- 10,6**%** (**87 ta) ,** qurilishda – **8,9 %** (**73 ta**) ni tashkil etdi.

**2023- yilning I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**



**2023 - yilning I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (207 ta), Karmana tumani (**137** ta), Qiziltepa tumani (**115** ta), Xatirchi tumani (**92** ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023 - yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, *% da***




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi sanoat sohasida – **54,1 %** ni qurilish sohasida – **50,7 %** ni, savdoda – **49,2 %**ni, xizmat sohasida– **49,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi xizmat sohasida – **51,4 %** ni savdo sohasida – **48,6 %** ni, qurilish sohasida – **48,0 %** ni, tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – **5,7 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – **3,4 %** ni, qurilish sohasida – **3,0 %** ni tashkil etdi.

### 2023 - yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qurilish sohasida– **64,4 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – **59,8 %** ni, sanoat sohasida– **59,3 %** ni, savdo sohasida – **56,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – **48,1 %** ni,, savdo sohasida– **42,8 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida sohasida – **39,1 %** ni tashkil etdi.

**Yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – **3,8 %** ni, sanoat sohasida – **1,4 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida sohasida 1,1 **%** ni tashkil etdi.

**2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, *% da***

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| **Korxonaning umumiy aylanmasi** | 37,5 | 59,1 | 3,4 |
| **Band bo‘lganlar soni** | 16,2 | 81,2 | 2,6 |
| **Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx** | 22,4 | 74,4 | 3,2 |
| **Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari** | 18,3 | 77,9 | 3,8 |
| **Raqobat muhiti** | 33,9 | 63,0 | 3,1 |

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| **Korxonaning umumiy aylanmasi** | 39,9 | 57,7 | 2,4 |
| **Band bo‘lganlar soni** | 17,6 | 80,7 | 1,7 |
| **Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx** | 22,9 | 74,1 | 3,0 |
| **Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari** | 19,9 | 76,8 | 3,3 |
| **Raqobat muhiti** | 33,7 | 63,7 | 2,6 |

**** Faqat raqobat muhitiga tegishli***

### 2023 - yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, *% da*




### 2023 - yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, *% da*




**** Faqat raqobat muhitiga tegishli***